


2019-yil 1-sentabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 6002 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2876 taga ko'pdir.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentabr holatiga 31689 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,0 % savdo, 19,0 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | Umumiy soni, birlik | | 01.09.2019 yil | |
|--|---------------------|----------------|---|--------------------|
| | 01.09.2018 yil | 01.09.2019 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Jamiga nisbatan, % |
| Jami | 24831 | 31689 | 127,6 | 100,0 |
| <i>shundan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 1884 | 2430 | 129,0 | 7,7 |
| Sanoat | 4555 | 6031 | 132,4 | 19,0 |
| Qurilish | 2169 | 2873 | 132,5 | 9,1 |
| Savdo | 5608 | 7594 | 135,4 | 24,0 |
| Tashish va saqlash | 780 | 971 | 124,5 | 3,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1540 | 2305 | 149,7 | 7,3 |
| Axborot va aloqa | 424 | 502 | 118,4 | 1,6 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 542 | 653 | 120,5 | 2,1 |
| Boshqa turlari | 7329 | 8330 | 113,7 | 26,1 |

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9848 ta), Urgut (2683 ta), Pastdarg'om (2602 ta) va Samarqand (2304 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (709 ta), Paxtachi (812 ta) hamda Nurobod (883 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 30078 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6632 ta (28,3 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdo, 19,1 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

19,1 %



Sanoat

23,9 %



Savdo

9,0 %



Qurilish

1,6 %



Axborot va aloqa

7,3 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

3,1 %



Tashish va saqlash

7,3 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi

2,1 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish


26,6 %



Boshqa
sohalar

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9419 ta), Urgut (2650 ta), Pastdarg'om (2437 ta) Samarqand (2152 ta) va Payariq (1556 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (675 ta), Paxtachi (764 ta) hamda Nurobod (819 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar *(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*


2019-yil yanvar-avgust oylarida 6002 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,9 martaga ko'pdir.

Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda *(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (1835 ta), Samarqand (555 ta), Pastdarg'om (498 ta) va Urgut (401 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (134 ta), Narpay (145 ta) hamda Paxtachi (151 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1948 ta), sanoat (1472 ta), boshqa faoliyat turlari (628 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (617 ta), qurilish (549 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (430 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (93 ta), axborot va aloqa (120 ta) hamda tashish va saqlash (145 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)







Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentabr holatiga 24567 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5478 ta, oilaviy korxonalar - 3785 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 14785 ta, unitar korxonalar - 243 ta, aksiyadorlik jamiyati - 29 ta va boshqalar 247 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Mas'uliyati cheklangan jamiyati**Xususiy korxonona****Oilaviy korxonona****Unitar korxonona****Aksiyadorlik jamiyati****Boshqalar**

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 489 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 128 taga yoki 35,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-sentabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 489 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (234 ta), Urgut (44 ta), Jomboy (38 ta) va Samarqand (28 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (5 ta), Paxtachi (6 ta), Nurobod (7 ta) hamda Kattaqo'rg'on (8 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 351 tasi qo'shma korxonalar, 138 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|---------------------------|----------------------------|--------------------------------------|
| Samarqand viloyati | 489 | 100,0 |
| Samarqand sh | 234 | 47,8 |
| Kattaqo'rg'on sh | 16 | 3,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqdaryo | 23 | 4,7 |
| Bulung'ur | 16 | 3,3 |
| Jomboy | 38 | 7,7 |
| Ishtixon | 10 | 2,1 |
| Kattaqo'rg'on | 8 | 1,6 |
| Qo'shrabot | 10 | 2,1 |
| Narpay | 5 | 1,0 |
| Payariq | 10 | 2,1 |
| Pastdarg'om | 20 | 4,1 |
| Paxtachi | 6 | 1,2 |
| Samarqand | 28 | 5,7 |
| Nurobod | 7 | 1,5 |
| Urgut | 44 | 8,9 |
| Tayloq | 14 | 2,9 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 109 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Samarqand shahar (43 ta yoki jamidagi ulushi 39,4 %), Qo'shrabot (8 ta yoki 7,3 %) va Kattaqo'rg'on shahrida (8 ta yoki 7,3 %), Oqdaryo hamda Samarqand (7 ta yoki 6,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Paxtachi, Narpay va Nurobod (1 ta yoki 0,9 %), Tayloq (2 ta yoki 1,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 20 ta, Turkiya Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi - 18 ta, Koreya Respublikasi – 8 ta hamda Afg'oniston Islom Respublikasi - 9 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida Isroil Davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (50 ta), savdo (14 ta), qurilish (14 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (14 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (2 ta), tashish va saqlashda (3 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5 ta) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda****Kichik korxonalar va mikrofirmalar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 24433 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-sentabr holatiga qaraganda 34,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8105 tasi (33,2 %) Samarqand shahri, 2182 tasi (8,9 %) Urgut, 1959 tasi (8,0 %) Pastdarg'om hamda 1868 tasi (7,6 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24433 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7163 tasi (29,3 %) - savdo, 5698 tasi (23,3 %) - sanoat, 2705 tasi (11,1 %) - qurilish, 2139 tasi (8,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi,

2191 tasi (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 909 tasi (3,7 %) - tashish va saqlash, 467 tasi (1,9 %) – axborot va aloqa sohasi, 514 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2647 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 5709 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (1774 ta), Samarqand (537 ta), Pastdarg'om (477 ta) va Urgut (377 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (122 ta), Narpay (135 ta), Paxtachi (145 ta) hamda Nurobod (149 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1945 ta), sanoatda (1470 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (617 ta), qurilishda (547 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (428 ta) va boshqa turlarida (362 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (75 ta), axborot va aloqada (120 ta) hamda tashish va saqlashda (145 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-sentabr holatiga 3970 tani tashkil etib, ulardan 3785 tasi yoki 95,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 45,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,7 % yoki 1238 tasi sanoat, 27,9 % yoki 1055 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,3 % yoki 808 tasi savdo, 7,8 % yoki 298 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,8 % yoki 29 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 35 tasi qurilish, 1,0 % yoki 39 tasi axborot va aloqa hamda 7,3 % yoki 270 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|---------------------------|------------------------|----------------------------------|
| Samarqand viloyati | 1455 | 100,0 |
| Samarqand sh | 379 | 26,0 |
| Kattaqo'rg'on sh | 12 | 0,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqdaryo | 41 | 2,8 |
| Bulung'ur | 50 | 3,4 |
| Jomboy | 87 | 6,0 |
| Ishtixon | 129 | 8,9 |
| Kattaqo'rg'on | 42 | 2,9 |
| Qo'shrabot | 7 | 0,5 |
| Narpay | 29 | 2,0 |
| Payariq | 130 | 8,9 |
| Pastdarg'om | 174 | 12,0 |
| Paxtachi | 7 | 0,5 |
| Samarqand | 178 | 12,2 |
| Nurobod | 7 | 0,5 |
| Urgut | 61 | 4,2 |
| Tayloq | 122 | 8,4 |

2019-yil yanvar-avgust oylarida 1455 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,5 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahri (379 ta), Samarqand (178 ta), Pastdarg'om (174 ta) va Payariq tumanlari (130 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Paxtachi, Nurobod hamda Qo'shrabot tumanlarida (7 tadan) tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,3 % yoki 484 tasi sanoat, 27,2 % yoki 397 tasi savdo, 26,7 % yoki 390 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,1 % yoki 103 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 7 tasi qurilish, 0,3 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 3,4 % yoki 49 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrarni
yuritish bo'limi
Tel.:71-230-85-42 (43)**